

MAXSAR NAVLARINING POYA BALANDLIGIGA EKISH SXEMASI VA MUDDATINING TA'SIRI.

Urganch Davlat Universiteti “Meva-Sabzavotchilik” kafedrasida stajor o'qituvchilari

U.Mamatdurdiev; D.Yakubov; K.Saporbayev; A.Ro'zmetov.

Urganch Davlat Universiteti talabasi

Xajiyev Ma'murjon

Anatatsiya: Maxsar o'simligi urug'ida moy bo'lib asosan bu o'simlikning o'sib rivojlanishiga ekish sxemasi va muddatining ta'sirini Jizzax-1 va Milyutinskiy-114 navlarida olib borildi va olib borilgan fenologik kuzatuvlar natijasiga ko'ra ekish sxemasidan 60x15 va ekish muddatidan 10.-03 muddatda ekilgan urug'larning biometrik ko'rsatkichlari yuqori bo'lganligi isbotlandi.

Tayanch so'zlar: Maxsar, nav, urug', ekish sxemasi, muddat, urug', shonalash, gullash, pishish, poya, to'pbarg.

Kirish Mahsar murakkabguldoshlar-“Carthamus L.” avlodiga kiradi. [1] Mahsar o'simligining o'sish davri 95-135 kun davom etad, maysa 2-5 C⁰ da unib chiqadi, muqobil harorat 22-25 C⁰, maysasi -3-4 C⁰ sovuqqa bardosh beradi.[2].Madaniy masxar bir yillik o't o'simlik, ildizi o'q ildiz bo'lib, baquvvat rivojlanadi va juda tarmoqlanadi, yerga 2 m gacha va undan ham chuqur kirib boradi. Poyasi tik o'sadi, dag'al, oq rangda, juda tarmoqlanadi, yerga 2 m gacha va undan ham chuqur kirib boradi.[3] Maxsarning “Milyutinskiy 114 navining poyasini balandligi 60-70 sm, kam shoxlaydi, shoxlari poyada yig'iq joylashgan.[4]

TAJRIBA O'TKAZISH USLUBI VA MAYDONI

Ilmiy tadqiqot ishlari uchun dala tajribalari Toshkent Davlat agrar universitetining tajriba xo'jaligida o'tkazildi. Tajriba dalasining tuprog'i qadimdan sug'oriladigan tipik bo'z tuproq.. Bu tuproqning rangi kulrang bo'z tuproq bo'lib, kuchsiz yerroziyaga

uchragan. Haydalma qatlami bo'zrang sarg'ish, pastki qatlamlarga o'tgan sari bo'zrang-qizg'ish, qo'ng'irsimon tusli. Bu tuproq agrofizik xossalariga ko'ra zichlashgan bo'lib, haydalma qatlam qalinligi 0-15 sm, haydalma qatlam osti qalinligi 15-27 sm. Tuproq solishtirma og'irligi haydalma qatlamda 2,68-2,69 g/sm³, hajm og'irligi 1,34 dan 1,37 g/sm³ atrofida, g'ovakligi yaxshi 49,07 dan 50,18%ni tashkil qiladi. Mexanik tarkibiga ko'ra haydalma gumusli qatlami (0-25 sm) o'rtacha qumoq, haydalma qatlam osti (25-50 sm) va pastki qatlamlarda (50-100 sm) og'irlasha borib, og'ir qumoq va yengil sozdan iborat bo'lib, fraksiyali minerallari ko'p 2-10%gacha. Tuproq umumiy azot haydalma qatlamlarda 0,160%, fosfor 0,170 %, kaliy 1,90% gacha bo'lib, harakatchan fosfor 17-46, harakatchan kaliy 380-540 mg/kg va kaliyning suvda yeriydigan harakatchan formasi 393-482 mg/kg atrofida. O'rganilgan tajriba maydonining tuprog'ida gumus miqdori 0-15 sm qatlamda 1,89 % , 15-27 sm qatlamda 1,73% bo'lib pastki qatlamlarga qarab kamayib boradi.

1-jadval.

Maxsarning “Jizzax-1 va Milyutinskiy-114 navlari poya balandligiga ekish sxemalari va muddatlarining ta'siri.

	Ekish sxemasi	Ekish muddatlari	To'pbarg hosil qilish	Shonalash-gullash	Pishish
Jizzax-1					
1	60x15-1	10.03	28.4	65.3	78.4
2		21.03	26.6	61.2	73.4
3		31.03	25.7	59.1	70.9
4	60x20-1	10.03	27.9	64.2	77.0
5		21.03	25.4	58.4	70.1
6		31.03	24.2	55.7	66.8
Milyutinskiy-114					
7	60x15-1	10.03	25.3	58.2	69.8
8		21.03	23.8	54.7	65.7
9		31.03	22.9	52.7	63.2
10	60x20-1	10.03	24.7	56.8	68.2
11		21.03	22.8	52.4	62.9
12		31.03	22.1	50.6	60.7

Maxsar o'simligining "Jizzax-1, Milyutinskiy-114" navlarini poya balandligiga ekish sxemasi va muddatining ta'siri turlicha bo'lib bunda Jizzax-1 navining 60x15-1 ekish sxemasi 31,03 kuni ekilganda to'pbarg hosil qilish fazasida poyasining balandligi 25.7 sm bo'lib 21.03 kuni ekilganda 3 variantga nisbatan 0.9 sm ga poyasi baland bo'lgan, 10.03 kuni ekilgan variantda esa to'pbarg hosil qilish fazasida poyasining balandligi 2.7 sm balandligi isbotlandi. Shonalash-gullash fazasida 31.03 kuni ekilgan variantda poyasining balandligi 59.1 sm ni tashkil etgan bo'lib 21.03 kuni ekilgan variantda maxsar o'simligining poyasining balandligi 61.2 sm ni tashkil etgan bo'lib, 3 variantga nisbatan 2.1 sm ga poyasining baland bo'lgan, 10.03 kuni ekilgan variantimizdagi maxsar o'simligining shonalash va gullash fazasidagi poyasining balandligi 6.2 sm ga baland bo'lgan. Pishish fazasida maxsar o'simligining Jizzax-1 navi poyasining uzunligi 3 variantda 70.9 sm ni tashkil etgan bo'lib, 2 variantda esa 73.4 sm bo'lgan va 3 variantga nisbatan 2.5 sm poasi baland bo'lgan, birinchi variantda esa poyasining balandligi uchinchi variantga nisbatan 7.5 sm ga ortganligi tajribada olib borilgan fenologik kuzatuvda isbotlandi. Maxsar moyli o'simligining "Milyutinskiy navi"ning 60x15-1 ekish sxemasi 31,03 kuni ekilganda to'pbarg hosil qilish fazasida poyasining balandligi 22.9 sm bo'lib 21.03 kuni ekilganda 8 variantga nisbatan 0.9 sm ga poyasi baland bo'lgan, 10.03 kuni ekilgan variantda esa to'pbarg hosil qilish fazasida poyasining balandligi 2.4 sm balandligi isbotlandi. Shonalash-gullash fazasida 31.03 kuni ekilgan variantda poyasining balandligi 52.7 sm ni tashkil etgan bo'lib 21.03 kuni ekilgan variantda maxsar o'simligining poyasining balandligi 54.7 sm ni tashkil etgan bo'lib, 7 variantga nisbatan 2.0 sm ga poyasining baland bo'lgan, 10.03 kuni ekilgan variantimizdagi maxsar o'simligining shonalash va gullash fazasidagi poyasining balandligi 5,5 sm ga baland bo'lgan. Pishish fazasida maxsar o'simligining Jizzax-1 navi poyasining uzunligi 3 variantda 70.9 sm ni tashkil etgan bo'lib, 2 variantda esa 73.4 sm bo'lgan va 3 variantga nisbatan 2.5 sm poasi baland bo'lgan, birinchi variantda esa poyasining balandligi uchinchi variantga nisbatan 7.5 sm ga ortganligi tajribada olib borilgan fenologik kuzatuvda isbotlandi. Jizzax-1 navining 60x20-1 ekish sxemasi

31,03 kuni ekilganda to'pbarg hosil qilish fazasida poyasining balandligi 24.2 sm bo'lib 21.03 kuni ekilganda 5 varyantga nisbatan 0.9 sm ga poyasi baland bo'lgan, 10.03 kuni ekilgan varyantda esa to'pbarg hosil qilish fazasida poyasining balandligi 3.7 sm balandligi isbotlandi. Shonalash-gullash fazasida 31.03 kuni ekilgan variantda poyasining balandligi 55.7 sm ni tashkil etgan 21.03 kuni ekilgan variantda esa maxsar o'simligining poyasining balandligi 58.4 sm bo'lib 6 variantga nisbatan 8.5 sm ga poyasining baland bo'lgan, 10.03 kuni ekilgan variantdagi maxsar o'simligining shonalash va gullash fazasidagi poyasining balandligi 6.2 sm ga baland bo'lgan. Maxsar o'simligining Jizzax-1 navi poyasining balandligi 6 variantda 63.2 sm ni tashkil etgan bo'lib, 5 variantda esa 70,1 sm bo'lgan va 6 variantga nisbatan 3.3 sm poyasi baland bo'lgan, to'rtinchi variantda esa poyasining balandligi oltinchi variantga nisbatan 10.2 sm ga ortganligi tajribada olib borilgan fenologik kuzatuvda isbotlandi.

Xulosa: Maxsar o'simligini "Jizzax-1 va Millyutini-114" navlarining poyasining balandligiga ekish sxemasi va muddatining ta'siri o'rganildi bunda Jizzax-1 navini 60x15-1 ekish sxemasi va 10.03 da ekilganda poyasining balandligi boshqa muddat va ekish sxemalarga nisbatan ijobiy ta'sir berganligi isbotlandi. Millyutini-114 navining ekish sxemasi 60x15-1 va 10.03 muddatda ekilganda poyasining balandligi olib borilgan tajribada isbotlandi.

1. Tursunov.S "O'simlikshunoslik" Toshkent "Ijod-press"-2019. 352 B
2. Ataboyeva .H Qodirxo'jayev.O "O'simlikshunoslik" Toshkent "Yangi asr avlodi"-2006. 256 B
3. Yoqubjonov.O , S.Tursunov "O'simlikshunoslik" Toshkent -2008. 276 B
4. Tursunov.S, Mustafaqulov.D, Sayfullayeva.N "O'simlikshunoslik" Toshkent "Tafakkur" 2008. 219 B